

SAMARQAND VILOYATIDA MADANIYAT (2017 yil yanvar-dekabr)

Samarqand qadimdan dunyo sivilizatsiya o'choqlaridan bo'lib kelgan. Buyuk Ipak yo'lida joylashgan bu shahar turli xalqlarning urf-odatlarini o'zida mujassamlashtirgan va dunyo madaniyati rivojiga o'z hissasini qo'shib kelmoqda.




Samarqand viloyatidagi kutubxonalar faoliyati

2018 yil 1 yanvar holatiga kutubxona muassasalari soni 317 tani tashkil etadi: ulardan axborot-kutubxona markazlari 1 ta, ta'lim muassasalari axborot-resurs markazlari 130 ta, ko'zi ojizlar uchun kutubxonalar 1 ta va boshqa kutubxonalar 5 ta. Kutubxonalarning 176 tasi shahar joylarida 141 tasi esa qishloq joylarida joylashgan.


	Jami	Shu jumladan	
		Shahar joylarda	Qishloq joylarda
Muassasalar soni, birlik	317	176	141
Kutubxona fondi, ming nusxa	8670,6	7672,6	998,0
Foydalanuvchilar soni, ming kishi	820,2	645,4	174,8
Foydalanishga berilgan kitob va jurnallar, ming nusxa	14380,3	11407,3	2973,0

Kutubxonalar soni, %




Kutubxonalardagi fon 8670,6 ming nusxani tashkil qilib 76725,6 ming nusxa shahar joylarda, 998,0 ming nusxa qishloq joylarda saqlanadi. Kutubxona foydalanuvchilari 820.2 ming kishini tashkil qildi.

Kutubxona fondi,%



Ta'lim muassasalaridagi axborot-resurs markazlari, %



Samarqand viloyatida muzeylar va teatrlar


2018 yil yanvar holatiga viloyatda muzeylar soni 11 tani, muzeyga tashrif buyuruvchilar soni 1903,5 ming kishini, asosiy fond eksponatlari soni 148841tani tashkil qildi.



MUZEYLAR FAOLIYATINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

Muzeylar soni, birlik	Ulardan muzey filiallari	Tashrif buyuruvchilar soni, ming kishi	Ulardan:		Muzeyda o'qilgan ma'ruzalar soni	Ko'rgazmalar soni	Muzeylar tomonidan tashkil etilgan ekskursiyalar soni	Ekskursiya tarzida qatnaganlar soni, ming kishi
			o'quvchi va talabalar soni	umumiy soniga nisbatan foizda				
11	7	1903,5	917,1	48,2	792	21	15599	419,5

2017 yilda muzey fondlari eksponat turlari bo'yicha, %



Viloyatda madaniyat va istirohat bog'lari faoliyati

Viloyatda 15 ta madaniyat va istirohat bog'lari mavjud ularning umumiy maydoni 76,2 gektarni tashkil qiladi. Ularning faoliyatiga ommaviy madaniy-ma'rifiy va sport tadbirlari mavzuli, adabiy-badiiy kechalar, teatrlashtirilgan tomoshalar va xalq sayllari, konsertlar tashkil etish kiradi.

Madaniyat va istirohat bog‘lari faoliyati

Madaniyat va istirohat bog‘lari soni	Madaniyat va istirohat bog‘lari umumiy maydoni, gektar	Dam olish ob‘ektlari soni	Attraksionlar soni	Jami qatnovlar, ming kishi	Shu jumladan bolalar tomonidan
15	76,2	26	162	669,7	361,5

Teatrlar faoliyati

Viloyatda 4 ta teatr mavjud bo‘lib ularda ularda jami 1232 ta spektakel (tomosha) lar namoyish etildi. Teatrlarga kirgan tomoshabinlar soni 322,2 ming nafarni tashkil qildi.



Teatrlar faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari

Tomoshabinlar son	shu jumladan:				Tomoshabinlar umumiy sonidan qishloq aholisi	Bepul spektakllar tomoshabinlari soni	ulardan qishloq joylarda
	o‘z joyida namoyish qilingan spektakllarda	ko‘chma spektakllarda	ulardan:				
			o‘z shahri doirasida	o‘z shahridan tashqarida			
322,2	245,2	77,0	67,0	10,0	53,8	19,0	0,7